



## TASAVVUF NAZARIY ISTILOHLARINING O'RGANILISHI, OBRAZ TAKOMILI TADQIQI

**Raxmatova Sitora Bobir qizi**

Navoiy davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15167421>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tasavvufiy istilohlarning, xususan, tavhid, fano, va baqo tushunchalarining Alisher Navoiy ijodidagi o'rni, ma'naviy-falsafiy mazmuni chuqur tahlil qilinadi. Alisher Navoiyning tasavvufiy asarlari orqali insonning ruhiy kamolot sari intilishi, ilohiy haqiqatga yetishish yo'li ramziy obrazlar orqali tasvirlanadi. Najmiddin Komilovning "Tasavvuf" asaridagi tavhidga doir nazariy va amaliy yondashuvlari, shuningdek, tasavvuf peshvolari (Ibn Arabiy, Junayd Bag'dodiy, Bayazid Bistomiy, Halloj) ta'limotlari orqali bu tushunchalarning tarixiy-falsafiy ildizlari yoritiladi. Ibrohim Haqqulning "Tasavvuf va she'riyat" asariga tayanib, Navoiy g'azallaridagi fano va baqo mazmuni izchil tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf, Alisher Navoiy, tavhid, fano, baqo, vahdat ul-vujud, ma'rifat, tasavvufiy istilohlar.

Alisher Navoiy ijodida tasavvufiy istilohlarning mohiyati+ va obrazlarning takomili chuqur ma'naviy va falsafiy asosga ega. Uning asarlari tasavvufiy tushunchalar bilan boyitilgan bo'lib, ular orqali insonning ruhiy kamolot yo'li tasvirlanadi. Navoiy tasavvufning asosiy g'oyalarini o'z she'riyatiga singdirgan holda, muayyan istilohlar orqali inson va ilohiy haqiqat o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalagan. Uning asarlarida ko'p uchraydigan tasavvufiy istilohlar quyidagilar:

- a) tavhid;
- b) vahdat;
- c) komil inson;
- d) fano va baqo;
- e) vahdat ul-vujud;
- f) ishq va ma'rifat

Tasavvufda **tavhid** (توحيد) nafaqat Allohning yagonaligiga e'tiqod qilish, balki insonning ruhiy jihatdan Olloh bilan birlashishiga intilish jarayoni sifatida tushuniladi. Oddiy aqidaviy tavhiddan farqli o'laroq, tasavvufda tavhid insonning o'z nafsidan voz kechib, mutlaq Haq (Alloh) bilan bir bo'lishi, ya'ni vahdat ul-vujud (borliqning birligi) konsepsiyasi bilan bog'liq. Tasavvufda tavhid (توحيد) nafaqat Allohning yagonaligiga e'tiqod qilish, balki insonning ruhiy jihatdan Olloh bilan birlashishiga intilish jarayoni sifatida tushuniladi. Oddiy aqidaviy tavhiddan farqli o'laroq, tasavvufda tavhid insonning o'z nafsidan voz kechib, mutlaq Haq (Alloh) bilan bir bo'lishi, ya'ni vahdat ul-vujud (borliqning



birligi) konsepsiyasi bilan bog'liq. Tavhid – bu Najmiddin Komilov ta'бири bilan aytganda, “inson ruhining poklanib, Mutlaq ruhga qo'shilishi tavhidning – oliy darajada tasdiqlanishi – haqqul yaqin martabasida qozonilgan imondir.”<sup>1</sup>

Najmiddin Komilov “Tasavvuf” asarida tavhidning ma'nosini o'rganar ekan, uch xil tavhid ilmini asoslab bergan:

1. Haqqning o'ziga yo'nalgan Haq ilmi. (Allohning yagonaligi ilmi)
2. Haqqa yo'naltirilgan Haq ilmi. (Haqqning tavhid haqidagi hukmlari va bandasi ko'ngliga tavhidni yetkazish ilmi)
3. Xalqning Haqqa yo'nalgan tavhidi. (Insonlarni Haq vahdoniyatiga yetkazish ilmi)<sup>2</sup>

Tavhid Allohning yagona ekanligiga, u hech kim va hech narsaga o'xshamasligiga, barcha mavjudot ustidan mutlaq hokim ekanligiga ishonishdir.


Najmiddin Komilov tavhid ilmini Haq taolo nuriga g'arq bo'lish va unga singib ketish sifatida izohlaydi. Bundan ko'rinadiki, tavhid faqat Yagonalikni tan olish emas, balki u bilan qo'shilishga, birlashishga bo'lgan harakat va insonning Mutlaq ruh tomon intilishini anglatadigan jarayondir. Buni olim dengiz va tomchi misolida yanada aniqroq ochib bergan: “Dengiz va tomchi bir vujud. Xuddi mana shu birlikni tan olish vahdatni tasdiqlashdir. Tomchining dengizga qarab intilishi va u bilan qo'shilishi tavhid, demak. Ammo tomchi dengiz tomon intilishda tozalanib, musaffolanib boradi. Bu tajrid”.<sup>3</sup>

Najmiddin Komilovning tasavvufiy asarlarida tavhid ilmi yetarli darajada yoritilgan bo'lib, u tasavvufning mohiyatini, uning falsafiy hamda amaliy jihatlarini chuqur tahlil qiladi. U tavhidni faqatgina aqidaviy tushuncha sifatida emas, balki ichki ruhiy tajriba, ma'naviy kamolot va ilohiy haqiqatni idrok etish jarayoni sifatida talqin qiladi.

Komilov o'z asarlarida tavhidni ikki asosiy nuqtai nazardan ko'rib chiqqan:

1. Nazariy jihatdan – U tavhidni Qur'on va hadis asosida sharhlab, tasavvuf ulamolarining fikrlariga tayanadi. Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband kabi tasavvuf peshvolarining qarashlari orqali tavhid tushunchasining rivojlanishini tahlil qiladi.

2. Amaliy jihatdan – Tavhidni faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki tasavvufiy suluk (ma'naviy yo'l) orqali inson qalbida shakllanadigan chuqur





POLAND



POLAND

ruhiy tajriba sifatida ko'rsatadi. Zikr, muroqaba, riyozat va qalbni poklash amaliyotlari orqali inson ilohiy haqiqatga yaqinlashishini ta'kidlaydi.

Najmiddin Komilovning tasavvufiy yondashuvi tavhidni faqat shariat doirasida tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki uning ma'rifiy va irfoniy tomonlarini ham chuqur ochib beradi. Shuning uchun uning asarlari tavhid ilmini har tomonlama yoritishda muhim o'rin tutadi.

Süleyman Uludağning "Tasavvuf terimlari sözlüğü" kitobida tavhid so'zi shunday izohlangan: "Tavhid-(Birlik) (Tas.) Allohning zoti, (Ta'rifatni) aqlan tasavvur etilgan va taxayyul qilingan har bir narsadan ajratib qo'yish uchun, Allohni o'z ko'nglingda o'zing xohlagancha tasavvur qil, lekin bilki, bu tasavvur Alloh emas..."<sup>4</sup>

Junayd Bag'dodiy tavhidni shaxsiy mavjudlikdan voz kechish sifatida ta'riflansa, Bayazid Bistomiy va Mansur Halloj uni fano darajasida tushungan. Ibn al-Arabiy esa tavhidni vahdat ul-vujud nazariyasi bilan bog'lab, borliqning butunlay Allohga xos ekanligini ta'kidlagan. Demak, tasavvufda tavhid masalasi Allohning yagonaligiga imon keltirish bilan chegaralanmaydi. U insonning Alloh bilan birlashish yo'li sifatida tushuniladi.

Navoiyshunos va tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqul Alisher Navoiy ijodida "Fano va baqo tushunchalarini chuqur tadqiq etib, "Tasavvuf va she'riyat" nomli asarida ushbu masalalarni keng yoritdi. **Fano** – inson o'z nafsini tark etib, Allohning haqiqatiga yetishishi bilan izohlansa, **baqo** – fano bosqichidan o'tib, ilohiy nur bilan barqaror qolish holati sifatida tushuniladi. Bu holatda so'fiy o'z mavjudligini Allohning mavjudligida topadi va doimo ilohiy haqiqat bilan uyg'unlikda yashaydi.

Masalan, "Lison ut-Tayr" dostonida fano va baqoni yo'ldagi orif qushlar orqali ramziy tasvirlaydi. Alisher Navoiy o'z she'riy asarlarida ham fano istilohini ko'p bora tilga olgan. Uning tasavvufiy g'oyalarga asoslangan g'azal va masnaviylarida bu mavzu keng yoritilgan:

Deding: "Fano nedurur?" Muxtasar deyin: "O'lmak!"

Ki sharhin tilasan, yuz risol bo'lg'usidur.

Ushbu misralarni Ibrohim Haqqul "Tasavvuf va she'riyat" asarida quyidagicha izohlaydi: "Fano deyilganda, "O'lmak!" degan muxtasar javob bilan chegaralanmasdan, "yuzlab risola" bo'ladigan sharhlari bilan ham izchil qiziqish kerakdir. Fano yo'li "bandaning Xudo tarafiga sayri"ning nihoyasidir. Bu holat ko'pincha o'zni yo'q etish, tugalish, yanada aniqrog'i, o'limga nisbat beriladi."<sup>5</sup>



Navoiyning “G’aroyib us-sig’ar” devoniga kiritilgan ushbu g’azalni tahlil qilar ekanmiz, unda shoir fano (yo’q bo’lish, o’tkinchilik) tushunchasini tasavvufiy ma’noda yoritib, insonning nafsdan voz kechishi, o’zligini unutishi va ilohiy ishq sari intilishi kerakligini ta’kidlaydi.

Dema, ne sud erur o’lmoq fano harimig`a xos,  
Yana ne sud kerak o`zlugungdin etsa xalos.

Avomdin, demakim,o`zni qutqaray, er esang  
O`zungdin o`zni qutulmoqqa jahd qilg`il xos.

Ko`ngul alil esa forig` emas xavotirdin,  
Jarohat uzra yig`ilmoq durur chibinga xos.

Ajab emastur agar topti gavhari maqsud  
Birovki, bo`ldi fano ashki bahrida g`avvos.

Ovuch qoqarmen o`z ahvolima tahayyurdin,  
Ramida ko`nglum erur bu usul ila raqqos.

Desang, bu yo`lda o`lay, nafsni burun o`ltur  
Ki, ishq shar`ida go`yo bu nav` keldi qisos.

Rizo yo`lida Navoiy borur qayon cheksang,  
Chu ishq bog`ladi bo`ynig`a rishtayi ixlos.<sup>6</sup>

1-baytda Navoiy hayotning o’tkinchi ekanini anglab, inson o’zligini yo’qotib, ilohiy haqiqat sari yo’l olishi lozimligini bevosita uqtiradi. Fano harimiga kirishdan qanday maqsad bor dema, o’zligingdan xalos bo’lishdan boshqa yana qanday maqsad kerak senga. Bu yerda shoir fano faqat jismoniy o’lim emas, balki ruhiy najot ekanini aytmoqda. Ya’ni, inson o’z “men”idan xalos bo’lib, ilohiy yo’lni tanlashi kerak.

2-bayt:Agar sen haqiqiy er kishi bo’lsang, avomdan o’zni qutqaray dema, o’zingdan o’zingni qutqarishga jahd qil. Odamlar orasidan chiqib, o’zini najotga erishtirishni istagan kishi avval o’z nafsini yengishi lozim. Zero, haqiqiy najot nafsga bo’ysunmaslik bilan bog’liqdir.



3-bayt: Ko'ngil ishq dardiga chalingan bo'lsa, u hech qachon xotirjam bo'lolmaydi. Ishq jarohati chuqurlashgan sari, u yanada g'amga botadi. Bu holat jarohat ustida chivinlarning yig'ilishi bilan izohlanadi.

4-bayt: Agar kimdir ishq daryosida g'avvos (sho'ng'uvchi) bo'lsa, u maqsad gavhariga yetishi ajab emas. Ya'ni, ilohiy ishqqa g'arq bo'lgan inson haqiqatni topishi mumkin.

5-bayt: Bu yerda shoir o'zining ma'naviy holatiga hayron qolib, qo'l qoqayotganini ta'kidlaydi. "Ramida" so'zi orqali lirik qahramon ko'nglining holdan toygan, ruhiy charchoq holatida ekanligini tasvirlaydi. Shunga qaramay u ilohiy ishq oldida taslim bo'lib raqs tushayotgandek tuyiladi.

6-bayt: Ishq yo'lida jon berishdan oldin, avvalo nafsni o'ldirish kerak. Bu tasavvufiy ma'no – inson nafsini yengib, ilohiy ishqqa tomon borishi lozimligini ifodalaydi.

7-bayt: Navoiy Allohning roziligi yo'lida borishdan to'xtamaydi, chunki u ishq ipiga bog'langan. Bu yerda ilohiy ishqqa to'la fidoyilik tasvirlanadi.

Bu g'azalda Navoiy tasavvufiy fano tushunchasini yorqin ifodalagan. Uningcha, haqiqiy najot o'zlikdan voz kechish, nafsni yengish va ilohiy ishqqa g'arq bo'lish bilan bog'liq. Ishq daryosiga sho'ng'igan kishi haqiqiy haqiqatni anglaydi va ilohiy huzurga yetishadi. Bu falsafiy g'oya tasavvufda keng tarqalgan bo'lib, Navoiy uni ma'no va badiiy san'atlar bilan boyitgan. Ushbu g'azal Ibrohim Haqqul tomonidan tahlilga tortilar ekan, quyidagicha xulosaga kelinadi: "E'tibor qildingizmi, fano manzilida qancha mushkul muammolarning tuguni yechilarkan. Aslida "fano harimig'a" yetgach na o'zlikdan va na avom qutqusidan, na ko'ngul ilati-yu, na nafs zug'umidan qutilish to'g'risida tashvish tortishga hojat qolmaydi. Unda «gavhari maqsud» ham topiladi, odamning o'z ahvoliga hayratlari ham behad ortadi. Lekin shoir fanoning yolg'iz "O'lmak"dan iborat emasligini asoslash uchun shunga diqqatni qaratadi.<sup>7</sup>

**Komil inson-** tasavvufda komil inson tushunchasi dastlab istiloh (nazariy tushuncha) sifatida paydo bo'lib, keyinchalik obraz sifatida takomillashgan. Bu rivojlanish tasavvuf falsafasi va adabiyotidagi chuqur o'zgarishlar bilan bog'liq. Komil inson tushunchasi tasavvufga Islom falsafasi va irfoniy tafakkur orqali kirib kelgan. U ilk bor nazariy asosda tasvirlangan bo'lib, quyidagi asosiy ta'limotlarga tayangan: Ibn Arabiy – "Vahdat ul-vujud" ta'limotida komil insonni Allohning mukammal aks etishi deb ta'riflagan. Unga ko'ra, komil inson ilohiy haqiqatni mukammal tarzda aks ettiruvchi mavjudotdir.



Al-G'azzoliy- Axloqiy yetuklik va ma'naviy poklanish orqali inson komillikka erishishini ta'kidlagan.

Najmiddin Kubro – Ma'naviy yuksalish bosqichlarini belgilab, komil inson darajasiga yetish uchun ruhiy tarbiya muhimligini bayon qilgan. Bu bosqichda komil inson tushunchasi ko'proq nazariy-falsafiy kategoriya sifatida tushunilgan.

Keyinchalik bu tushuncha adabiyotimizda timsol va obraz sifatida rivojlandi. Tasavvufiy adabiyotda komil inson turli badiiy timsollar orqali ifodalanib, jonli obraz sifatida gavdalantirildi:

Alisher Navoiy – O'zining "Xamsa" va boshqa asarlarida komil inson fazilatlarini ijtimoiy va axloqiy jihatdan yorqin obrazlar orqali aks ettirgan. Uning qahramonlari – Farhod, Majnun, Shayx San'on – komil inson g'oyasining badiiy ifodasi hisoblanadi. Komil inson tushunchasi tasavvufda nazariy tushunchadan badiiy obrazgacha rivojlangan, bu esa uning ta'sir doirasini yanada kengaytirgan.

Xulosa qilib aytganda, maqolada ko'rsatib o'tilganidek, tasavvufiy istilohlar Alisher Navoiy ijodining asosiy ma'naviy va falsafiy tayanchidir. Uning asarlarida tavhid Allohning yagonaligiga ishonishdan tashqari, insonning ruhiy yetuklikka erishish yo'li sifatida talqin etiladi. Najmiddin Komilovning tavhidga oid yondashuvi bu tushunchaning faqat nazariy emas, balki chuqur ichki tajribaga asoslangan ma'naviy holat ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Ibrohim Haqqulning tahlillari orqali fano va baqo tushunchalarining Navoiy ijodida ramziy obrazlar vositasida qanday ifodalangani ochib beriladi. Demak, tasavvufiy istilohlar – nafaqat diniy-falsafiy tushunchalar, balki shoirning ma'naviy izlanishlarini ifoda etuvchi badiiy vositalardir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat.--Toshkent,1991.--B.28.
2. .Komilov N. Tasavvuf.–Toshkent:"Movarounnahr–"O'zbekiston",2009.–B.320.
3. Navoiy A. "G'aroyib us-sig'ar".– B.271.
4. Süleyman Uludağning .Tasavvuf terimlari sözlüğü.–Istanbul,1995.–B.533-534.

